

IJTIMOIY PROFILAKTIKA SUB'EKTLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xudoyqulov Sadilla Qaxramon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti, safdor

Umurqulov Mirshohid Alisher o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti, safdor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14550746>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev, “zamon shiddat bilan o'zgaryapti Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o'zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo'limiz – mahalla, mahalla, mahalla va bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro'yini qancha ko'tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo'ladi”¹ deb, bejiz ta'kidlamagan. Bugungi kunda huquqbuzarliklarni bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi sub'ektlarning “Obod va xavfsiz mahalla” tamoi ili asosida respublika mahallalarida huquqbuzarlik sodir etishga moi il bu lgan ye xud huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bu lgan shaxslar bilan kunlik yakka tartibda ishlash bu i icha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish tartibini belgilangan².

Bu borada, 2023 yilning sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Mahalla beshligi”dan “ettilikka” aylantirilishini e'lon qilar ekan, bu tizim “eshituvchi davlat” konsepsiyasini amalga oshirish maqsadida yaratilganini bejiz ta'kidlab o'tmagan³. Mazkur chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash asnosida “Mahalla yettiligi” joriy etilib, uning a'zolari bo'lgan mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektorlari hamkorlikda “ijtimoiy profilaktika ob'ektlari”ga vakolatlari doirasida holisona ko'maklashishdan iboratdir⁴.

Biroq, shuni alohida ta'kidlash joizki, “Mahalla yettiligi”ning vazifalariga yetarlicha ye ndoshilmaganligi hamda “oilalardagi notinchlik, nizolarning o'z vaqtida hal etilmasligi mahalla faollari va keng jamoatchilikning e'tiboridan chetda qolganligi oqibatida o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilmoqda. Masalan, 2023 yil 12 oyida sodir etilgan 363 ta qotillikning 141 tasi yoki 38,8 foizi oila-turmush doirasidagi nizolar oqibatida kelib chiqqan”⁴ligini statistik tahlillar asosida ko'rish mumkin. Shu sababli oiladagi yoki boshqa huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabab va sharoitlarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida, jazoni ijro etish kaloniyasida jazo muddatini o'tayotgan 230 nafar mahkumlar o'rtasida anketa so'rovi o'tkazilib, ularga “Sizningcha, jinoyatchilikni kamaytirish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim? ekanligi xaqida berilgan savolga respondent-mahkumlarning 59 % – odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilab, kambag'allikni kamaytirish kerakligini; 37 % – ta'lim tarbiyaga ko'proq e'tibor berish kerakligini; 4 % – ichki ishlar organi va boshqa davlat organlari hamda mahallaning

¹ Aslanov B., Cayfullaev O'. “Mahalla yettiligi” ning huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli past bo'lgan shaxslar toifalari bilan ishlashning o'ziga xos bo'lgan jihatlari //Sentralnoaziatskiy jurnal mejdissiplinarnyx issledovaniy i issledovaniy v oblasti upravleniya. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 6. – S. 101-106.

² Prezident Sh.M. Mirziyoyev. O'zbekistonda “mahalla yettiligi” tashkil etildi. Tizim to'liq raqamlashtiriladi. [Murojaat vaqti: 01.05.2024]. URL: //https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/

³ Prezident Sh.M. Mirziyoyev “Bizni bitta narsa qutqaradi – sadoqat, vatanga muhabbat va fidoyilik” [Murojaat vaqti: 01.05.2024]. URL: //https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/hearing-state/

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi 209-son (2023) Farmoni. [Murojaat vaqti: 01.02.2024]. //URL https://lex.uz/docs/6705763.

nazoratini kuchaytirish va jazolarni og'irlashtirish kerak», deb javob berishgan.

Tadqiqotlar natijasidan ko'rinib turibdiki, "ijtimoiy profilaktika sub'ektlari" tomonidan "ijtimoiy profilaktika ob'ektlari"ni aniqlash, ijtimoiy holatini o'rganish, hamda ularning ro'yxatlarini shakllantirgan holda e'tijolarini yaratib berilsa, mahalla xududlarida huquqbuzarliklarni kamayishiga erishish va ijtimoiy profilaktikasini ta'minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy profilaktika bu – huquqbuzarlik sodir etishga mo'ljallangan xud huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga huquqii, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui tushuniladi.

Nazarimizda, ishsizlar, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan oilalar, boquvchisini o'qitgan yolg'iz yashovchi xotin-qizlar va bolalar hamda g'airijtimoiy xulq-atvorga ega bo'lgan yoshlarning hayoti qiyinchilik yoki ruhiy tushkunliklarining mavjudligi huquqbuzarliklarni kelib chiqish ehtimolini yuzaga keltiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2024 yil 8 yanvar oyi holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ishsizlarning soni 1 million 300 ming nafarni tashkil qilgan bo'lib, davlat tomonidan "2024 yil mobaynida 5 million aholining doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta'minlashi"⁵ rejalashtirilgan.

Bu borada, ijtimoiy himoya bo'yicha milliy strategiya ishlab chiqilgan bo'lib, uning doirasida ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasi yaratilib, barcha "daftarlari" ijtimoiy himoya yagona reestriga birlashtirildi. Yordamga muhtoj barcha oilalar va shaxslarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha milliy strategiya ishlab chiqildi va 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi loyihasi"da qayd etilgan⁶. Xususan, "ijtimoiy profilaktika ob'ektlari" uchun "Temir, Ayollar va Yoshlar daftarlari" joriy etilishi va ijtimoiy himoyalarning amalda qo'llanilishi:

birinchidan, huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli past bo'lgan shaxslar toifalarini nazoratga olinilishi;

ikkinchidan, mahallalarda ijtimoiy va iqtisodiy muhitni barqarorlashtirilishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aslanov B., Cayfullaev O'. "Mahalla yettiligi" ning huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli past bo'lgan shaxslar toifalari bilan ishlashning o'ziga xos bo'lgan jihatlari //Sentralnoaziatiskiy jurnal mejdissiplinarnyx issledovaniy i issledovaniy v oblasti upravleniya. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 6. – S. 101-106.
2. Prezident Sh.M. Mirziyoev. O'zbekistonda "mahalla yettiligi" tashkil etildi. Tizim to'liq raqamlashtiriladi. [Murojaat vaqti: 01.05.2024]. URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/>
3. Prezident Sh.M. Mirziyoev "Bizni bitta narsa qutqaradi – sadoqat, vatanga muhabbat va fidoyilik" [Murojaat vaqti: 01.05.2024]. URL:

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2024 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida"gi 7-sonli Qarori. [Murojaat vaqti: 01.02.2024]. URL: <https://old.lex.uz/docs/6752402>

⁶ O'zbekiston Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot :<https://regulation.gov.uz/uz/d/55274>

//<https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/hearing-state/>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 209-son (2023) Farmoni. [Murojaat vaqti: 01.02.2024]. //URL <https://lex.uz/docs/6705763>.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2024 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida"gi 7-sonli Qarori. [Murojaat vaqti: 01.02.2024]. //URL <https://old.lex.uz/docs/6752402>

6. O'zbekiston Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot :<https://regulation.gov.uz/uz/d/55274>